FARG‘ONA VILOYATI UCHKO‘PRIK TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 14 - fevral 42-11-162-Q/24 Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tuman hududidagi Avtomototransport vositalarini yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil 15-son 197-moddasiga) muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.03.2021-yil 09/21/25/0195-son) ijrosini ta’minlash shuningdek, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunining 6, 25 - moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Uchko‘prik tumani IIB boshlig‘ining 2023-yil 22-dekabrdagi 1634-sonli aloqa xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalari 2024-yil 1-martdan - 30-iyun kuniga qadar, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari 2024-yil 1 yanvardan - 31 dekabr kuniga qadar texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

3. Avtomototransport vositalarining yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Komissiya tarkibiga kiritilgan mas’ul shaxslarning oylik ish xaqi hamda mukofotlari 2024-yil 1-yanvardan - 1-iyulgacha va 2024-yil 1-sentabrdan - 31-oktabrgacha to‘liq saqlansin.

5. Komissiya zimmasiga:

Texnik ko‘rik davomida belgilangan jadvalga rioya qilish, transport vositalarini texnik ko‘rikga tayyorgarligini, kerakli jihozlarni yetkazib berilishini, tuman mudofaa ishlar bo‘limida ro‘yxatda turuvchi transport vositalariga barcha hujjatlarni rasmiylashtirilganligiga, avtotransport vositalarini qayd etish guvohnomalarini, ta’mirga olib borish ro‘yxatlarini, ishga chiqish va qaytishni qayd etish kitoblari yuritilganligini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

6. Tumandagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona va tashkilotlarning

rahbarlariga jadvalda ko‘rsatilgan muddatga qadar avtomototransport vositalarini texnik ko‘rikka tayyorlash va texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasiga taqdim etish vazifasi topshirilsin.

7. Tumandagi tijorat asosida yo‘lovchi tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jixozlangan yuk avtomobillarini, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar-bir yilda ikki marta, birinchi marta 1-martdan - 30-iyun kuniga qadar, ikkinchi marta 1-sentabrdan - 31-oktabr kuniga qadar texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2022-yil 17-dekabr kunidagi “Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 276-11-162-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb xisoblansin.

9. Mazkur qaror “Yangi Farg‘ona” ro‘znomasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimining veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalari orqali rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishi nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Maxsudov zimmasiga yuklatilsin.

Uchko'prik tumani hokimi v.v.b **U. D. Maxsudov**

Uchko‘prik tuman hokimining
2024-yil 14-fevraldagi
42-11-162-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Avtomototransport vositalarining yillik majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

1.	A.Madraximov	-	Tuman IIB DYHXG katta inspektori, ishchi guruh raisi
A’zolari			
2.	D.Ibragimov	-	Tuman IIB DYHXG MA inspektori, katta serjant
3.	U.Rojiyev	-	“Vatanparvar USTK” Uchko‘prik tumani boshlig‘i
4.	V.G‘aniyev	-	Tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi
5.	S.Azizov	-	Tuman Mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limi boshlig‘i

Izoh: Mazkur ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, guruh tarkibiga ularning lavozimiga yangi tayinlangan shaxslar yoki tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.